

AHOLI VA XUDUDLARNI TEXNOGEN XUSUSIYATLI FAVQULODDA VAZIYATLARDAN MUXOFAZA QILISHNI TASHKIL ETISH

Yunusov Abduvoxid

**Farg‘ona viloyati Favqulotda vaziyatlar boshqarmasi
Xayot faoliyati xavfsizligi o‘quv markazi o‘qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrning so‘nggi yillarida insonlar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan texnogen xususiyatdagi favqulodda vaziyatlarning turi va miqdori oshib borilayotgaligi, ammo favqulodda vaziyatlar to‘g‘risida to‘lik tasavvurga ega bo‘lishga, imkon darajada oldini olishga, ayanchli oqibatlarini keltiradigan zararini iloji boricha kamaytirishga va fuqarolarimizni samarali muxofazalash chora- tadbirlarini topishga erishish kerakligi ko‘rib chiqilgan va yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik falokatlar, tabiiy va texnogen xususiyat, favqulodda vaziyatlar, xavf, kompleks reja tadbirlar, muhofaza qilish.

Abstract: In the last years of the 20th century, the type and quantity of man-made emergency situations related to human activities are increasing, but it is necessary to have a complete picture of emergency situations, to prevent them as much as possible, to reduce their damage as much as possible, and to effectively protect our citizens. measures to be achieved are considered and highlighted.

Key words: environmental disasters, natural and man-made features, emergency situations, risk, comprehensive planning measures, protection.

Аннотация: В последние годы XX века увеличиваются виды и количество техногенных чрезвычайных ситуаций, связанных с деятельностью человека, но необходимо иметь полное представление о чрезвычайных ситуациях, максимально предотвращать их, максимально уменьшить их ущерб и эффективно защитить наших граждан, рассматриваются и выделяются меры, которые необходимо достичь.

Ключевые слова: экологические катастрофы, природные и техногенные особенности, чрезвычайные ситуации, риск, комплексные мероприятия планирования, защита.

Kirish

- Insoniyat paydo bo‘libdiki, har xil xavflarga, shu jumladan tabiatning vayronkor injiqliklariga faqat jamoa va jamiyatlarga birikgan holdagina kurashish mumkinligi to‘g‘risida xulosaga kelgan. Qaysidir ma’noda ushbu vaziyatning o‘zi Davlatning kelib chiqish sabablaridan biri deb ham hisoblash mumkin.

- Ushbu muammoni tarixiy jihatdan o‘rganadigan bo‘lsak sivilizatsiyaning rivojlanishi texnik progress jarayonida Davlatning aholi va hududlarni tabiiy ofatlardan, avariyalardan, tabiiy, texnogen hamda ekologik falokatlardan muhofaza qilishdagi o‘rni benihoya oshib borish tendensiyasini kuzatish qiyin emas. 20 asrning oxirlariga kelib, xavfli tabiiy jarayonlar, texnogen va ekologik falokatlarga qarshi samarali kurash olib borish uchun dunyoning ko‘plab mamlakatlari davlatning aniq maqsadga yo‘naltirilgan Davlat siyosatini amalga oshirish lozimligi to‘g‘risida xulosaga kelindi. Shu jumladan MDH davlatlari ichida O‘zbekiston ham birinchilar qatorida ushbu yo‘ldan bordi.

- Sobiq ittifoq davridagi 1986 yildagi Chernobilfojiasi sobiq ittifoq rahbarlarini falokatlarni oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish muammolarini davlat siyosati darajasida

yechilishi lozimligini tushunib yetishiga xizmat qilgan bo‘lsa, 1988 yildagi Spitak zilzilasi bu masalada yagona xulosaga kelishni tezlashtirib yubordi. Bu borada Mustaqillikning ilk yillarida O‘zbekiston Respublikasi hududlarida sodir bo‘lgan xavfli geologik jarayonlarni faollashuvi, seysmik faol hududda joylashgan O‘zbekiston hududida o‘zining achchiq xotiralari bilan tarix varaqlariga muhrlanib qolgan Toshkent (1966y), Gazli (1984 y) zilzilalari, shuningdek 90 yillarning boshlaridagi (Jigariston Toshkent viloyati, Oqtosh Samarqand viloyati) odamlar qurbon bo‘lishi bilan bog‘liq yirik ko‘chki hodisalari, qaysidir ma’noda endigina mustaqillik ostonasiga qadam qo‘ygan iqtisodiy jihatdan ancha zaif bo‘lgan Davlatimiz rahbarlarini tabiiy texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish borasida yagona Davlat siyosatini amalga oshirish lozimligi bo‘yicha qat’iy qarorga kelishiga sabab bo‘ldi.

- Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki O‘zbekiston Respublikasida aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish Davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”gi qonunlari va Hukumatning bir qator qonun osti hujjatlarining ishlab chiqilishi, Respublikada 1996 yilda respublikada aholi va hududlarni muhofaza qilish hamda fuqaro muhofazasini tashkil etilishiga mas’ul bo‘lgan maxsus vakolatli davlat organi Favqulodda vaziyatlar vazirligining tashkil etilishi buning yaqqol isboti deb aytish mumkin.

- Respublikada Dastlab 1998 yilda O‘zbekiston Respublikasi Vairlar Mahkamasining 558-sonli Qarori bilan Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish bo‘yicha yagona tizim tashkil etildi. (Respublikadagi iqtisodiy ijtimoiy va siyosiy islohotlarni inobatga olib) Ushbu qaror 2011 yildagi Vazirlar mahkamasining 242-sonli Qarori bilan takomillashtirildi. Shuningdek mazkur qaror bilan O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to‘g‘risidagi nizom hamda O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi faoliyati ustidan davlat boshqaruvi va nazorati, Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda boshqa tashkilotlarga aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha funksiyalari belgilab berilgan.

- Favqulodda vaziyatlarning sodir bo‘lishi, joyi va ko‘lamidan kelib chiqishi uni bartaraf etish uchun qancha kuch va vositalar zarurligini belgilab beruvchi omillar hisoblanadi. Darhaqiqat agar vaziyat rostdan ham kutilmagan joyda kutilmagan miqyosda sodir bo‘lar ekan, Davlatning uni bartaraf etishga mo‘ljallangan kuch va vositalari mazkur joyda bo‘lib turishi absurd (xomxayol) hisoblanadi. Shuning uchun muayan bir hududda sodir bo‘lgan favqulodda vaziyatni oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishda aynan ushbu hududdagi mavjud barcha kuch va vositalarni vazifalarni taqsimlagan holda safarbar etilishi, odamlar qurbon bo‘lishi va iqtisodiy zararlarni kamayishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mavjud kuch va vositalarni oldindan vazifalarini taqsimlab berish favqulodda vaziyatlar xavfi tug‘ilganda yoki sodir bo‘lganda o‘z sohasiga bog‘liq yoki bog‘liq bo‘lmagan aniq vazifalarni bajarish kompleks reja tadbirlarini yaratish, kuch va vositalarini doimiy ravishda ushbu vazifalarni bajarishga tayyor holatda bo‘lishini ta’minlash kabi tadbirlar, bu borada alohida mustaqil faoliyat ko‘rsatishi zarur bo‘lgan tizim yaratish lozimligini taqozo etdi. Shuning uchun ko‘pgina davlatlarda shu jumladan bizning Respublikamizda ham aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli

favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish borasida mamlakat darajasida alohida tizim yaratilgan.

- Mazkur tizim boshqaruv organlari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, favqulodda vaziyatlarda aholini va hududlarni himoya qilish masalalarini hal etish vakolatiga kiradigan boshqa tashkilotlarning kuch va vositalarini birlashtiradi hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasidagi tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish, ular yuzaga kelganda aholi xavfsizligini, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishni hamda tinchlik va harbiy davrda davlat iqtisodiyotiga zararni kamaytirishni ta‘minlashga mo‘ljallangan bo‘lib, FVDT ya‘ni Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish Davlat tizimi deb ataldi. FVDT hududiy va funksional quyi tizimlardan iborat bo‘ladi hamda tarkibida axborot-boshqaruv tuzilmasi faoliyat ko‘rsatadigan respublika, mahalliy va obyektlar miqyosidagi uch darajaga ega bo‘lindi va ulaning aniq vazifalari belgilab berildi.

- Bugungi kunda Respublika hududida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish mazkur tizimning o‘rni va ahamiyati ulkan darajada ekanligini e‘tirof etish lozim. Barcha tizimlarning o‘zida uchraydigan muammolari va ularga topiladigan yechimlari aynan o‘sha tizimni takomillashuviga xizmat qiladi.

- Shu bois bugungi kunda Favqulodda vaziyatlar ularning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish Davlat tizimida uchrab turadigan ayrim muammolarga e‘tibor qaratsak:

- bugungi kunda tizimdagi fuqaro muhofazasi xizmatlari tomonidan Aholi va hududlarni muhofaza qilish va Fuqaro muhofazasi sohasida ishlab chiqiladigan Rejalar va boshqa meyoriy hujjatlar aniq tartibga solinmagan;

- aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish hamda fuqaro muhofazasi sohasidagi tadbirlarni rejalashtirish va tashkil etishda moliyaviy ta‘minotni aniq belgilab beruvchi meyoriy hujjat mavjud emasligi tizimda kattagina muammolarni keltirib chiqarmoqda;

- tizim tarkibidagi xizmatlar va iqtisodiyot obyektlarida fuqaro muhofazasi sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi shtat birliklari yetarli darajada emas;

- joylarda sohaga javob beruvchi mavjud kadrlarning tayyorgarligi yetarli darajada emas, bunga asosiy sabab ularning aniq lavozimda turg‘un emasligi, yoki tayyorgarlikdan o‘tish muassasalariga ularning o‘rniga boshqa xodimlarni yuborilishi;

- aholini barcha qatlamlarini favqulodda vaziyatlar harakat qilishga tayyorlashning eng samarali usuli bo‘lgan har qanday turdagi o‘quv mashqlarini o‘tkazishida ayrim xodimlarning mas‘uliyatsizlik bilan yondoshishlari, o‘quv mashqlari taxlili aniqlangan kamchiliklar ularning yechimi muhokamasi yuzaki ravishda rasmiyatchilik uchungina o‘tkazilib kelishi va hokazolar.

Xulosa

Yuqorida sanab o‘tgan muammoli vaziyatlar tizim faoliyatidagi ayrim dolzarb muammolar edi xolos balki masalaning ichiga yanada chuqurroq kirilsa bundanda ko‘proq va jiddiyroq muammolarga duch kelish mumkin. Ushbu muammolarning yechimi bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar pirovard natijada mamlakatimiz aholisi va hududlarini tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

5. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т., “Ўзбекистон”, 2016.б
6. Сенюшкин Н. С., Суханов А. В., Шарина А. В. Особенности системы мониторинга и прогнозирования чрезвычайных ситуаций // Москва. Молодой ученый. — 2014. — №11. Т.1.
7. Владимиров В.А., Измалков В.И., Измалков А.В. Оценка риска и управление техногенной безопасностью. М.: Деловой экспресс, 2002.
8. Курта С. А. Хімія високомолекулярних сполук. Лекція № 7 : Прикарпатський національний університет імені Василя Стефаника, 2021. 21 с. (Препринт. ПНУ імені Василя Стефаника). URL: <https://kc.pnu.edu.ua/wp-content/uploads/sites/11/2021/02/Chemistry-ofmacromolecular-compounds7.pdf>.